

O‘ZBEKISTON TASVIRIY SAN’ATIDA O‘ROL TANSIQBOYEV IJODI VA FAOLIYATI

Xo‘janiyozov Rashid Qo‘shnazarovich

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti

Amaliy san’at fakulteti Chizmatasvir kafedrası mudiri

Annotatsiya:

Ushbu maqolada O‘rol Tansiqboyevning ijodiy faoliyati, usha davr ijtimoiy hayoti, xalq turmush-tarzi haqida yozilgan.

O‘rol Tansiqboyevning asarlarida ilgari surilgan g‘oya chuqur mazmunga ega bo‘lib, tomoshabinda katta qiziqish uyg‘otadi. San’at asarlari o‘z mazmunida borliqni aks ettiribgina qolmasdan, ayni vaqtda ular rassomning g‘oyalarini ham ifodalay olgan.

KALIT SO‘ZLAR: *Tasavvur, rassom, rang, surat, ijod, odamlar, davr, manzara.*

ТВОРЧЕСТВО И ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ УРОЛА ТАНСИКБАЕВА В ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМ ИСКУССТВЕ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация:

В данной статье описывается творческая деятельность Орола Тансикбоева, общественная жизнь того времени, жизнь народа.

Идея, представленная в произведении Орола Тансикбаева, имеет глубокий смысл и вызывает большой интерес у зрителя. Произведения искусства могут не только отражать в своем содержании существование, но и выражать идеи творца.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *Воображение, художник, цвет, картина, творчество, люди, эпоха, пейзаж.*

CREATIVITY AND ACTIVITY OF UROL TANSIKBAEV IN THE FINE ARTS OF UZBEKISTAN

Annotation:

This article describes the creative activity of Orol Tansikboev, the social life of that time, the life of the people.

The idea presented in the work of Orol Tansikbaev has a deep meaning and is of great interest to the viewer. Works of art can not only reflect existence in their content, but also express the ideas of the creator.

KEYWORDS:

Imagination, artist, color, painting, creativity, people, era, landscape.

Yurtimizning go‘zal tabiatini tasvirlovchi hamda insonning murakkab aql-zakovati, tafakkurini, tabiatda sodir bo‘lib turadigan katta-kichik o‘zgarishlarni, uzluksiz falsafiy g‘oyalar va fantastik obrazlarni ta‘sirchan ifodalovchi tasviriy san‘at hayotimizda muhim o‘rinni egallab kelmoqda.

Xususan san‘at asarlari inson tomonidan ko‘rib mushohada etiladi. Ijodkorning ichki dunyosi, borliqni, uning go‘zalligini ranglar orqali ko‘rish va tasavvur etish, haqiqiy san‘at asarini qadrlashni o‘rgatadi. Tasviriy san‘atda hodisa, voqea va ko‘rinishlar doirasining to‘laligi turli yo‘nalishlardagi janrlar orqali ochib beriladi[1,38].

Rassomlar o‘z asarlarida hayotni qanday ko‘rsalar o‘shanday emas, balki undagi alohida e‘tiborga molik, xarakterli ko‘rinishlarini tushurib qoldiradilar, eng muhimlarini esa bo‘rttirib ko‘rsatadilar. Tanlash va bo‘rttirish orqali narsa va hodisalarning kishilar tafakkuri va hissiyotlariga samarali ta‘sir ko‘rsatishga erishadilar. Borliqni shunchaki biladigan kishigina emas, balki u avvalo, boy tasavvur va tafakkur qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan ijodkordir[2,47].

Ana shunday ijodkor rassomlarimizdan biri O‘rol Tansiqboyev rangtasvir ustasi bo‘lib, o‘z ijodining daslabki yillarida anchagina asarlar yaratgan.

U ijodida borliqni shunchaki aks ettiribgina qolmay, balki unga asoslangan holda tasavvur etadi. Demak, san‘at asarlari o‘z mazmunida borliqni aks ettiribgina qolmasdan, ayni paytda ular rassomning g‘oyalarini ifodalaydi, tomoshabin ongini boyitadi.

Shu bilan birga bunday asarlar kishilar ruhiyatiga ta‘sir ko‘rsatib, ular ma‘naviy olamini, bilim va tajribasini kengaytiradi. Shuni aytish kerakki, ma‘naviy ishlab chiqarish eng avvalo, mehnatning ijodiy harakterini namoyon qiladigan sohadir. Inson ma‘naviy dunyoqarashini shakllanishida ma‘naviy sohalarning shakllanishi muhim ahamiyat kasb etadi[3,6].

O‘rol Tansiqboyevning inson ma‘naviy dunyoqarashini shakllanishiga xissa qo‘shuvchi eng sara ijod davri 1940 yildan so‘ng boshlandi. U ikkinchi jahon urushi bo‘lgan joylarga O‘zbekiston delegatsiyasi tarkibida borib, u yerlardan katta taasurotlar bilan qaytadi, natijada ozod etilgan yerlarda bir qator asarlar yaratadi. Bu yillarda yaratgan asarlarida rassom fashistlar bilan kurashayotgan kishilarning mardligi, vijdonini pokligi, ma‘naviy go‘zalligi, mehnatsevarligi, xaloskorligi, dushmanga nisbatan shafqatsizligi kabi olijanob fazilatlarini kuylaydi.

Urushdan keyingi yillarda O‘rol Tansiqboyev katta o‘lchovda asarlar yarata boshladi. Bunday asarlar qatoriga “Sholichilik kolxozida hosil yig‘ib olish”, “Bahor”, “Paxtani sug‘orish”, “Jonajon o‘lka”, “Issiqko‘l oqshomi”, “Tog‘da” kabilarni kiritish mumkin[14].

Rassom ijodining gullagan davrida yaratgan asarlaridan biri “O‘zbekistonda mart” deb atalgan. Uning bu asarida bahordagi quyosh taftidan bahra ola boshlagan maysazorlar, daryoga olib boruvchi so‘qmoq, daryo qirg‘og‘ining baland – pastliklari, qiyg‘os gullagan daraxtlar, o‘ziga sig‘may oqayotgan daryo, daryoning narigi tomonidagi tepaliklar, qori erib tugamagan tog‘lar, quyosh nurlariga hamohang tusga kirgan bulutlar kishiga zavq bag‘ishlaydi.

Umuman suratda bahor manzarasi nihoyatda hayajonli ifodalangan bo‘lib, u kishidan bahor fasli tabiatni va kishilarni uyqudan uyg‘otgandek kayfiyat hosil qiladi. Buni bahorgi quyosh nurlarida bahra ola boshlagan va o‘tloq bag‘rida yonboshlagan bolalar, o‘tlab yurgan hayvonlar tasviridan ham bilsa bo‘ladi.

O‘. Tansiqboyev o‘zining urushdan keyingi ijodida, respublikada qurilayotgan kanallar, suv ombori, elektrositansiyalar, neft qidiruv ishlari bilan hamohang tabiat manzaralarini tasvirlashga xarakat qildi.

Kompozitsiya markazidagi elektrastantsiya erta tongda zangori tusga kirgan cheti ko‘rinmas o‘lka dengizni mahkam tutib turgandek tuyuladi. Asarni kuzatgan odam sahroga jon bag‘ishlovchi mo‘jizakor manzaraning sehrli olamiga kirib qoladi. Unda olisdagi bo‘y cho‘zgan musaffo dengiz qariga ko‘milgan shodlik va nafosatga boy tong yorishib kelayotganini qalbdan his etadi.

Bu suratda tasvirlangan narsalar juda oddiy, lekin sehrlidir. Chunki dengiz, osmon va yerning bepoyonligi koloritning jozibadorligi, mayinligi kishini o‘ziga tortadi. Manzarada suv, cho‘l, tog‘ va fazoning yirik hamda umumiydashgan holda berilganligi sababli u nihoyatda salobatli ko‘rinadi.

O‘. Tansiqboyev ijodiga xos bo‘lgan asarlaridan yana biri “Tog‘dagi qishloq oqshomi”dir. Asar vertikal holdagi kompozitsiya bo‘lib, una Respublikamizning tog‘li go‘zal qishloqlarimizdan biri kechki payt tasvirlangan. Unda uzoqlarda yastanib yotgan moviy tog‘lar, chiroqlarini endigina yoqqan xonadonlar, qishloq yonidagi oqib o‘tgan soy, bu yerlarda kishilar va bolalar tasviri ko‘zga tashlanadi[15].

Bu odam shakllari manzaraga hamohang tarzda hayot bag‘ishlaydi. Suratdan ko‘rinib turibdiki, kech kirib, oqshom og‘ushida quyosh botgan va tog‘ cho‘qqilari – yu, qoyali toshlarni tun o‘z qariga tortmoqda.

Tepaliklardan tushib kelayotgan qo‘ylarni marashi, soyning shovillashi, chigirtkalarining chirillashi eshitalayotgandek tuyuladi. Kechki yog‘du bag‘rida.yu uning zavqini tortayotgan bolalar tasviri, u yer, bu yerdan ko‘zga tashlanadi.

O‘. Tansiqboyevning diqqatga sazovor rasmlarida yana biri, “Sirdaryo” nomli asari Moskvadagi Tretyankov gareleyasida saqlanadi. Uning asarlariga xos xarakterli xususiyatlar Ona – vatanga muhabbat, uni ulug‘lashdir.

Rassom asarida tabiatning keng qamrovli va osmon o‘par tog‘lar, ilon izi uzoqlarga kelgan yo‘llar, moviy osmon, osmon bilan tutashib ketgan go‘zal hayotiy

manzaralar tasvirlanadi. O‘zbekistonning takrorlanmas go‘zalligiga bag‘ishlangan asarlari nihoyatda rang-barang bo‘lib, uning asarlari chet yellarda ham ma‘lum va mashhurdir.

O‘.Tansiqboyevning “Jonajon o‘lka”, “Tog‘ oqshomi” manzarasi, “Kattaqo‘rg‘on suv ombori”, “Issiqko‘l oqshomi”, “Tog‘larda”, “Mening qo‘shig‘im” kabi ko‘plab mashhur asarlari mavjuddir. Uning yetuk asarlaridan biri “Mening qo‘shig‘im” asari bo‘lib, tabiiy ranglar jilosi bir-biriga uyg‘unlashib ketgan bu kartinada birinchi planda gullarning qiyg‘os ochilgan payti tasvirlangan,

XX asrning 50 yillarida uzbek manzara janrida O‘rol Tansiqboyev karvonboshi bo‘ldi. Qishloq xo‘jalik mavzusiga oid asarlar yarata boshladi. 1950 yilda “O‘zbekistonda bahor”, “Paxtani sug‘orish” asarini yaratdi[15].

Rassom tomonidan ishlangan “Paxtani sug‘orish” asari ham yuksak mazmunga ega xususan, XX asrning so‘nggi o‘n yilliklariga kelib mamlakat ichki hayotini qamrab olgan jiddiy iqtisodiy nuqsonlar qishloq xo‘jaligini o‘z domiga torta boshladi. O‘zbekiston asosan xomashyo yetishtirib beradigan mintaqa hisoblangani sababli, respublika qishloq xo‘jaligi rivoji boshqa ittifoqdosh respublikalarga nisbatan ancha og‘ir, ziddiyatli jarayonlar ta‘sirida qoldi.

O‘rta Osiyo, ayniqsa O‘zbekiston qishloq xo‘jaligining “Paxta” xomashyo kompleksi atrofida rivojlantirishi bu yillarda o‘z salbiy ta‘sirini ko‘rsata boshlagan edi.

O‘zbekiston mamlakatning asosiy paxta xom ashyosi bilan ta‘minlovchi mintaqasi bo‘lganligi sababli qo‘shib yozishlar illati rivojlangan joy O‘zbekiston deb qaraldi va mamlakat miqyosida katta harakatlar boshlanib, O‘zbekiston birinchi nishonga olingan respublikalardan bo‘lib qoldi.

Ushbu o‘zbek xalqiga qaratilgan nohaq siyosat va ayblovdan O‘zbekiston jumladan, uning viloyatlari ahli juda og‘ir, tuzatib bo‘lmaydigan moddiy va ma‘naviy zararga duchor bo‘ldilar.

Rassom asarida bepayon paxta dalasi tasvirlangan bo‘lib, unda o‘zbek xalqining mehnatsevarligi o‘z aksini topgan.

Uzoqdan ko‘rinib turgan moviy tog‘lar, yastanib yotgan ko‘m-ko‘k daraxtlar tabiatning go‘zal manzarasi kishiga zavq bag‘ishlaydi. Mirishkor dehqonlarning kechayu-kunduz paxta dalasida mehnat qilishlari asarda ifodalangan.

Xulosa qilib aytganda rassom dunyo qarashining kengligi, teran fikrlash qobiliyatining yuksakligi uning asarlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ayni murakkab bir davrda ijod qilish, xalq dardi bilan yashash, uni his qilish shu bilan birga ijtimoiy hayot, aholi turmush tarzini o‘z asarlarida mohirona tasvirlay olganligi ijodkorning eng katta yutug‘idir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hasanov. R., “Tasviriy san’at asoslari”, Toshkent, 2009 yil.
2. Nabiev M., Rangshunoslik. – Toshkent. “O‘qituvchi”, 1996 y.
3. “O‘zbekiston san’ati”. T.: 2001.
4. Abdirasilov. S., Tolipov. N., - Dastgohli rangtasvir. “Iqtisod moliya”. T.: 2010.
5. O. Mo‘yinov “Rangtasvir” Toshkent “Sharq” matbaa-aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati 2007 yil.
6. G‘. A. Artiqov. “Rangtasvir texnikasi va ashyolar texnologiyasi” Toshkent “Sharq” matbaa-aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati 2007 yil.
7. Amaliy bezak san’ati. Tasviriy san’at. O‘zME. Toshkent: 12 tom. 2006; 542-563 betlar;
8. Пугаченкова Г. Из художественной сокровищницы. Среднего Востока Тошкент: 1987;
9. Qoraboev, U. Madaniyat masalalari. Toshkent: 2009; 251 bet
10. Степанов, Г.П. “Композиционные проблемы синтеза искусств”.- Л. “Художник”. 1984
11. Декоративная монументальная живопись, Шанхай. 1999.
12. Монументальное искусство.- Л.
13. Декоративная стенопись на здании.
14. Mamatov U.N. STUDY OF THREE PORTRAITS OF THE GREAT POET OF THE MIDDLE AGES, ALISHER NAVOI. — USE: Oscar Publishing Services, 2023. — ISSN – 2771-2141. — P. 15-20
15. Kasimov K.S. THE POSITION OF THE ARTIST IN MODERN SOCIETY. — USE: Oscar Publishing Services, 2023. — ISSN – 2771-2141. - P. 10-13
16. Allabergenov S.A. The Significance of Colors as an Emotional Factor in the Art of Painting. — USE: AMERICAN Journal of Public Diplomacy and International Studies, 2023. — ISSN (E): 2993-2157 — P. 148-150
17. Mahmudov B.T. Perception of Miniature Works through an Artistic Image. — USE: IJNRAS, 2023. — ISSN: 2751-756X. - P. 179-182
18. Umirzakov R.R. IMAGINATION ALLOWS A PERSON TO REALIZE MANY PROJECTS. — European Journal of Innovation in Nonformal Education, 2023. — ISSN - 2795-8612 - P. 158-161